

GLOBALLASHUVNING XALQARO MOLIYA BOZORLARIGA INTEGRATSIYA JARAYONLARI TA'SIRINING AMALIY TAHLILI

Sevinchova Marjona Ismatulloyevna
Bank-moliya akademiyasi magistranti
sevinchovamarjona@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolamizda globallashuvning xalqaro moliya bozorlariga ta'sirini kompleks tahlil qilish va zamonaviy moliyaviy integratsiya jarayonlarining xususiyatlarini o'rghanishga bag'ishlangan. Tadqiqot "United Accounting Group" MCHJ faoliyati misolida olib borilgan empirik tahlil asosida global tendensiyalarning mikro darajadagi ta'sirini baholaydi. Dissertatsiyaning asosiy maqsadi globallashuvning xalqaro moliya bozorlariga ko'rsatgan ta'sirini sistemli o'rghanish va bu jarayonlarning rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun differensial xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida moliyaviy liberalizatsiya jarayonlari, kapital oqimlarining xalqaro dinamikasi, moliyaviy integratsiyaning chuqurligi va sistemali risklarning evolyutsiyasi kabi muhim masalalar chuqur tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: globallashuv, xalqaro moliya bozorlari, moliyaviy liberalizatsiya, kapital oqimlari, moliyaviy integratsiya, sistemali risklar, moliyaviy barqarorlik, rivojlanayotgan mamlakatlar, rivojlangan mamlakatlar, risk boshqaruvi, moliyaviy texnologiyalar, fintech, moliyaviy inklyuziya, reguliyativ siyosat, korporativ moliya.

ABSTRACT

In this article, we are dedicated to the comprehensive analysis of the impact of globalization on international financial markets and the study of the features of modern financial integration processes. The study evaluates the influence of global trends at the micro level based on an empirical analysis conducted on the example of the activities of the LLC United Accounting Group. The main purpose of the dissertation is to systematically study the impact of globalization on international financial markets and determine the differential properties of these processes for both developed and developing countries. The study thoroughly analyzed important issues such as financial liberalization processes, international dynamics of capital flows, the depth of financial integration, and the evolution of systemic risks.

Keywords: globalization, international financial markets, financial liberalization, capital flows, financial integration, systemic risks, financial stability,

developing countries, developed countries, risk management, financial technologies, fintech, financial inclusion, regulatory policy, corporate finance.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy muhitda globallashuv jarayonlari xalqaro moliya bozorlarining rivojlanishida muhim rol o'ynab, integratsiya jarayonlarini tezlashtirish va chuqurlashtirish yo'nalihsida katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu ta'sirni tahlil qilish uchun "United Accounting Group" MCHJ faoliyati misolidagi moliyaviy ko'rsatkichlar va xalqaro bozor tendensiylarini o'rghanish zarurdir.

Globallashuvning moliya bozorlariga ta'siri bиринчи navbatda kapital oqimlarining liberallashuvida namoyon bo'ladi. Xalqaro investitsiya faoliyatining kengayishi natijasida moliyaviy institutlar o'z faoliyatini bir necha mamlakatlarda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu esa moliyaviy xizmatlar sektorida raqobatning kuchayishiga va yangi moliyaviy vositalar paydo bo'lishiga olib keldi. "United Accounting Group" MCHJ ning moliyaviy hisobotlari tahlilida ham ushbu jarayonlarning ta'sirini kuzatish mumkin[1].

Korxona faoliyatining moliyaviy holatini baholash uchun balans va pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlar tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayonlari nafaqat kapital bozorlarida, balki real sektorda ham sezilarli o'zgarishlar yuzaga keltirmoqda. Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq hisobot tayyorlash zarurati, valyuta kurslari o'zgarishining ta'siri va xalqaro investorlar talablariga javob berish zaruriyati kabi omillar korxona faoliyatiga bevosita ta'sir etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Globallashuvning xalqaro moliya bozorlariga ta'siri haqidagi zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu masala hozirgi davrda iqtisodiy fanlarning eng dolzARB va multidisiplinar tadqiqot yo'nalihsidan biriga aylangan. So'nggi besh yilda (2019-2024) bu sohadagi tadqiqotlar sezilarli tarzda intensivlashdi va yangi metodologik yondashuvlar, shu jumladan econometric modellashtirish, panel ma'lumotlar tahlili, va qiyosiy tadqiqotlar keng qo'llanilmoqda. Xalqaro moliya bozorlari nazariyasining rivojlanishida moliyaviy globallashuvni turli jihatlardan - iqtisodiy o'sish, moliyaviy barqarorlik, tengsizlik va geosiyosiy xavf-xatarlar nuqtai nazaridan o'rghanish zarurati paydo bo'lgan. Prasad va boshqalar (2003), Kose va boshqalar (2009) kabi klassik asarlardan boshlab, hozirgi davrga qadar moliyaviy globallashuvning nazariy asoslari va empirik natijalari bo'yicha keng munozaralar davom etmoqda. Aluko va Opoku (2022), Nasreen va boshqalar (2020) kabi so'nggi tadqiqotlar moliyaviy globallashuvning turli mamlakatlar uchun har xil ta'sir

ko'rsatishini isbotlagan va "one size fits all" yondashuvining noto'g'riligini ta'kidlashgan.

Moliyaviy globallashuvning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ta'siri masalasi ayniqsa muhim bo'lib, bu borada Afrika mamlakatlari misolida olib borilgan tadqiqotlar (2022) shuni ko'rsatdiki, moliyaviy globallashuv 33 ta Afrika davlatida 2005-2019 yillarda moliyaviy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqotchilar Driscoll-Kraay va panel-corrected standard errors metodlaridan foydalaniib, transchegaraviy bog'liqlikni hisobga olgan holda tahlil qildilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan globallashuvning xalqaro moliya bozorlarida integratsiya jarayonlariga ta'sirini amaliy tahlili asosida takomillashtirishga qaratilgan jarayonlarini qiyosiy rivojlantirishga oid turli xil yondoshuvar umumlashtirilgan holda o'rGANildi.

Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona faoliyatining moliyaviy holatini baholash uchun balans va pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlar tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, globallashuv jarayonlari nafaqat kapital bozorlarida, balki real sektorda ham sezilarli o'zgarishlar yuzaga keltirmoqda. Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq hisobot tayyorlash zarurati, valyuta kurslari o'zgarishining ta'siri va xalqaro investorlar talablariga javob berish zaruriyati kabi omillar korxona faoliyatiga bevosita ta'sir etmoqda[11].

Moliyaviy integratsiya jarayonlarining chuqurligini baholash uchun korxona aktivlari tarkibini va ularning dinamikasini tahlil qilish muhimdir. Uzoq muddatli aktivlar qatorida investitsiya qiymatlari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar muhim o'rin tutadi. Qisqa muddatli aktivlar esa korxonaning joriy moliyaviy holatini aks ettiradi va globallashuv ta'sirida yuzaga keladigan o'zgarishlarni tezda aks ettiradi.

Korxona moliyaviy holatining tahlili shuni ko'rsatdiki, globallashuv jarayonlari moliya bozorlarida yangi imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, yangi xavf-xatarlar ham keltirib chiqarmoqda. Valyuta kurslari o'zgaruvchanligi, xalqaro moliya inqirozlarining ta'siri, raqobat kuchayishi kabi omillar korxonalar faoliyatiga murakkab ta'sir ko'rsatmoqda.

1-jadval.

Korxona aktivlarining tarkibi va dinamikasi (ming so‘m)[12]

Ko‘rsatkichlar	Joriy yil boshiga	Joriy yil oxiriga	O‘zgarish (+/-)	O‘zgarish (%)
I. Uzoq muddatli aktivlar				
Asosiy vositalar	-	-	-	-
Nomoddiy aktivlar	-	-	-	-
Uzoq muddatli investitsiyalar	-	-	-	-
Uzoq muddatli aktivlar jami	-	0,00	0,00	-
II. Qisqa muddatli aktivlar				
Tovar-moddiy zaxiralari	-	0,00	0,00	-
Qisqa muddatli debtorlik qarzi	-	10 010,00	10 010,00	-
Pul mablag‘lari	-	0,00	0,00	-
Qisqa muddatli aktivlar jami	-	20 010,00	20 010,00	-
JAMI AKTIVLAR	-	20 010,00	20 010,00	-

Muallif tomonidan tadqiqot manbalari asosida ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko‘rsatadi, korxona faoliyatida qisqa muddatli aktivlar ustunlik qiladi, bu esa moliyaviy moslashuvchanlikni ta’minlash va globallashuv jarayonlaridan kelib chiqadigan tez o‘zgarishlarga moslashish imkoniyatini yaratadi. Debitorlik qarzining yuqori ulushi korxonaning kredit siyosatini liberallashtirganligini va xalqaro hamkorlik darajasining oshganligini ko‘rsatadi.

Globallashuvning moliya bozorlariga ta’sirini yanada chuqur tahlil uchun korxonaning pul oqimlari dinamikasini o‘rganish zarur. Pul oqimlari korxonaning real moliyaviy holatini aks ettiradi va globallashuv ta’sirida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni eng yaxshi tarzda namoyon etadi.

2-jadval.

Pul oqimlarining tarkibi va dinamikasi (ming so‘m)[13]

Faoliyat turlari	Joriy davr	O’tkan davr	O‘zgarish (+/-)	O‘zgarish (%)
Asosiy faoliyat				
Tovarlar sotishdan tushum	61 300,00	43 300,00	18 000,00	41,6
Xizmatlar ko‘rsatishdan tushum	18 000,00	-	18 000,00	-
Jami daromadlar	79 300,00	43 300,00	36 000,00	83,1

Xarajatlar	33 290,00	-	33 290,00	-
Sof pul oqimi (asosiy)	46 010,00	43 300,00	2 710,00	6,3
Investitsiya faoliyati				
Investitsiya daromadlari	10 010,00	10 010,00	0,00	0,0
Sof pul oqimi (investitsiya)	10 010,00	10 010,00	0,00	0,0
Moliyalashtirish faoliyati				
Kapital qo'shimchalari	7 440,00	-	7 440,00	-
Sof pul oqimi (moliyalashtirish)	7 440,00	0,00	7 440,00	-

Muallif tomonidan tadqiqot manbalari asosida ishlab chiqilgan.

Pul oqimlari tahlili natijalaridan ko'rinish turibdiki, korxona faoliyatida ijobiy tendensiya kuzatilmoxda. Asosiy faoliyatdan tushayotgan daromadlarning 83,1% ga oshishi globallashuv sharoitida bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanilganligini ko'rsatadi. Xizmatlar ko'rsatish yo'nalishining paydo bo'lishi ham korxonaning faoliyat doirasini kengaytirganligini va xalqaro talablarga moslashganligini anglatadi[14].

Globallashuvning moliya bozorlariga ta'sirini baholashda valyuta riskining o'rni alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda ko'pchilik korxonalar bir necha valyutada operatsiyalar amalga oshiradilar, bu esa valyuta kurslarining o'zgarishi bilan bog'liq qo'shimcha risklar yaratadi. "United Accounting Group" MCHJ ning faoliyati ham ushbu risklar ta'sirida amalga oshiriladi.

Moliyaviy integratsiyaning chuqurligi nafaqat kapital oqimlarida, balki moliyaviy institatlarning o'zaro bog'liqligida ham namoyon bo'ladi. Xalqaro moliya bozorlarida yuzaga keladigan inqirozlar bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga tezda tarqaladi, bu esa sistemali risklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ushbu holatda korxonalar o'z faoliyatini yanada ehtiyojkorlik bilan rejalashtirish va risk-menejment tizimlarini takomillashtirish zaruriyati paydo bo'ladi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi globallashuv jarayonlarini yanada tezlashtirmoqda. Moliyaviy texnologiyalar (FinTech) sohasidagi yutuqlar xalqaro to'lovlar tizimini soddalashtirdi, investitsiya jarayonlarini avtomatlashtirdi va moliyaviy xizmatlarning mavjudligini oshirdi. Bu o'z navbatida kichik va o'rta biznes uchun ham xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi globallashuv sharoitida yangi ma'noga ega bo'ladi. Endi moliyaviy barqarorlik nafaqat mahalliy iqtisodiy sharoitlarga bog'liq, balki xalqaro omillarga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli, zamonaviy korxonalar o'z strategik rejalashtirish jarayonlarida xalqaro omillarni hisobga olishlari zarur.

Xalqaro moliya standartlarining qo'llanilishi ham globallashuvning muhim natijasidir. IFRS va boshqa xalqaro standartlar korxonalar faoliyatida shaffoflikni oshiradi va xalqaro investorlar uchun moliyaviy hisobotlarni tushunarli qiladi. "United Accounting Group" MCHJ ham o'z faoliyatida ushbu standartlarga rioya qilish zaruriyatini his etmoqda.

Globallashuv sharoitida moliya bozorlarining volatilligi oshdi. Bu korxonalar uchun ham yangi imkoniyatlар, ham yangi cheklovlar yaratadi. Yuqori daromadlilik imkoniyatlari bilan bir qatorda, yuqori risklar ham paydo bo'ladi. Shu sababli, zamonaviy korxonalar o'z investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilish va risk boshqaruviga ko'proq e'tibor berish zaruriyatini his etmoqdalar.

Globallashuvning moliya bozorlariga ta'sirini baholashda kredit bozorlarining liberallashuvini ham hisobga olish kerak. Xalqaro kredit institutlari faoliyatining kengayishi natijasida korxonalar moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu holat "United Accounting Group" MCHJ uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki korxona o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun turli manbalardan foydalanish imkoniyatiga ega.

Xalqaro moliya bozorlarida derivativ moliyaviy vositalarning keng qo'llanilishi globallashuvning yana bir muhim natijasidir. Fyucherslar, opsiyonlar va swaplar kabi vositalar korxonalarga risk boshqaruvini yaxshilash imkoniyatini beradi. Ammo shu bilan birga, ushbu vositalarning murakkabligi va yuqori spekulyativ xususiyatlari qo'shimcha risklar yaratadi. Korxonalar ushbu vositalardan foydalanishda yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj sezadilar.

Globallashuvning ta'sirida moliyaviy bozorlar 24 soat faoliyat ko'rsatadigan xalqaro tizimga aylandi. Tokio, London va Nyu-York birjalarining uzluksiz faoliyati natijasida moliyaviy aktivlarning narxlari doimiy ravishda o'zgarib turadi. Bu holat korxonalar uchun real vaqt rejimida qarorlar qabul qilish zaruriyatini yaratadi va moliyaviy monitoring tizimlarini takomillashtirish talabini keltiradi.

Institutional investorlarning rolining oshishi ham globallashuvning muhim xususiyatidir. Pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlari kabi yirik institutional investorlar xalqaro moliya bozorlarida dominant mavqega ega bo'ldilar. Ular katta hajmdagi kapital bilan bozorga ta'sir etib, narx shakllanishida muhim rol o'ynaydilar. Kichik korxonalar ushbu institutional investorlarning talablari va strategiyalarini hisobga olishga majbur.

Moliyaviy innovatsiyalarning tez sur'atli rivojlanishi globallashuv davrining yana bir belgisidir. Mobil to'lovlar, kriptovalyutalar, robo-advisory xizmatlar va sun'iy intellektga asoslangan investitsiya strategiyalari moliya sektorini tubdan

o‘zgartirmoqda. "United Accounting Group" MCHJ kabi korxonalar ham ushbu yangi texnologiyalardan foydalanish zaruriyatini his etmoqdalar.

Regulyativ muhitning yagonalashtirilishi globallashuvning muhim jihatni hisoblanadi. Basel kelishuvlari, FATF tavsiyalari va boshqa xalqaro standartlar moliyaviy institutlar faoliyatini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Bu standartlarning qo‘llanilishi moliya bozorlarida barqarorlik va ishonchni ta’minlashga yordam beradi, ammo korxonalar uchun qo‘srimcha compliance xarakatlarini ham keltirib chiqaradi.

ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlarining ahamiyati ortib borishi zamonaviy globallashuvning yangi xususiyatidir. Xalqaro investorlar o‘z investitsiya qarorlarini qabul qilishda korxonalarning ekologik va ijtimoiy mas’uliyatini hisobga olmoqdalar. Bu holat korxonalar uchun o‘z biznes-modellarini qayta ko‘rib chiqish va barqaror rivojlanish printsiplarini joriy etish zaruriyatini yaratmoqda.

Globallashuvning ta’sirida yuzaga kelgan yana bir muhim hodisa moliyaviy tizimlarning o‘zaro bog‘liqligining ortishidir. Bir mamlakatdagi moliyaviy inqiroz tezda boshqa mamlakatlarga tarqaladi va global ta’sir ko‘rsatadi. 2008 yilgi global moliyaviy inqiroz va COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan moliyaviy turbulentlik ushbu bog‘liqlikning yaqqol namunasidir. Shu sababli, zamonaviy korxonalar o‘z risk boshqaruv strategiyalarida global omillarni hisobga olishlari zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonlari xalqaro moliya bozorlarida chuqur integratsiya yaratib, korxonalar faoliyatiga keng ta’sir ko‘rsatmoqda. "United Accounting Group" MCHJ misolidagi tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, globallashuv ta’sirida korxona faoliyati kengayib, yangi imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda, ammo shu bilan birga yangi risklar ham yuzaga kelmoqda. Zamonaviy sharoitda muvaffaqiyatli faoliyat uchun korxonalar globallashuv jarayonlarini to‘g‘ri tushunish va ularga moslashish qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduroziqova, G., & Jumaniyozov, I. (2023). Globallashuv sharoitida xalqaro sug‘urta bozori va sug‘urta operatsiyalarining o‘rni. *Science and Education*, 4(6), 826-835.
2. Aluko, O. A., & Opoku, E. E. O. (2022). The financial development impact of financial globalization revisited: A focus on OECD countries. *Research in International Business and Finance*, 61, 101659.

3. Furceri, D., Loungani, P., & Ostry, J. D. (2024). Globalization and fiscal policy after financial crises. *European Journal of Political Economy*, 83, 102459.
4. International Monetary Fund. (2024). Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation. IMF Staff Country Reports, 2024(210).
5. Jumaniyazov, I. T. (2022). O'zbekistonda davlat moliya tizimidagi islohotlar va rivojlantirish istiqbollari. *Science and Education*, 3(5), 1637-1645.
6. Kose, M. A., Prasad, E., Rogoff, K., & Wei, S. J. (2009). Financial globalization: A reappraisal. IMF Staff Papers, 56(1), 8-62.
7. Levin, Yu. A. (2023). Finansovaya globalizatsiya: teoreticheskiye i prakticheskiye aspekty disbalansov rynkov kapitalov. *Pravo i upravleniye. XXI vek*, 19(2), 71-78.
8. Nasreen, S., Mahalik, M. K., Rashid, A., & Shahbaz, M. (2020). How do financial globalization, institutions and economic growth impact financial sector development in European countries? *Research in International Business and Finance*, 54, 101285.
9. Prasad, E., Rogoff, K., Wei, S. J., & Kose, M. A. (2003). Effects of financial globalization on developing countries: Some empirical evidence. IMF Occasional Paper No. 220.
10. Rudol'f, V. D. (2016). Finansovaya globalizatsiya: sushchnost' i posledstviya. *NovaInfo*, 46, 151-155.
11. Stolbov, M. I., Goloshchapova, I. O., Solntsev, O. G., et al. (2018). A cross-country comparative analysis of the Russian financial sector model. *Voprosy Ekonomiki*, 5, 5-24.
12. Ungboevich, M. O. K. (2024). Application of digital platforms in the statistical system based on international experience. *European Journal of Economics, Finance and Business Development*, 2(7), 16-23.
13. Mustafakulov, O. K. (2024). Statistika tizimida raqamli platformalarni amaliy tadbiq etish metodologiyasi. *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*, 4(1), 45-54.
14. Mustafakulov, o. (2024). Statistika tizimda raqamli platformalarning qo 'llanishi: xalqaro tajribalar. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (7), 184-195.